
Bugun ijtimoiy tarmoqlarda Buvayda tumanidagi 3-maktab filiali "ahvoli" sarlavhali murojaat elon qilindi

Murojaat Buvayda tuman hokimligi hamda Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan o'rganilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Buvayda tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 3-maktab filialida 60 nafar 1-2-3-4-sinf o'quvchilari tahsil olishi, maktab isitish tizimini yangilash maqsadida quruvchilar 28.08.2023 sanasidan qurilish ta'mirlash ishlarini boshlaganliklari ma'lum bo'ldi. Qurilish ishlari 4-sentabr kuniga qadar yakunlanmaganligi sababli o'quvchilar dars mashg'ulotlarini asosiy maktab binosida boshlashgan. Hozirgi vaqtga kelib qurilish ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilgan, sinf xonalar zamonaviy stol-stul, doska bilan to'la jihozlanib dars mashg'ulotlarini boshlash uchun shay holatga keltirilgan. O'quvchilar 05.09.2023 dan boshlab filialda dars mashg'ulotlarini boshlaydilar.

2023-09-05 13:37:32